



THE SOCIAL NATURE OF DOMESTIC CORRUPTION

Akhmad Tursunov

Researcher

National University of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: roziboyevd831@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: Domestic corruption, social nature, economic factors, institutional reasons, socio-cultural factors, agent-client model, transparency, public administration, economic growth, fight against corruption.

Received: 04.03.25

Accepted: 06.04.25

Published: 08.04.25

Abstract: This article analyzes the social nature of everyday corruption. The economic, institutional, and socio-cultural factors of corruption are discussed, and its root causes are revealed based on various theoretical approaches and empirical research. The study explains everyday corruption relationships using the "agent-client" model. The correlation between the level of corruption and societal moral norms, transparency of public administration, and economic conditions is analyzed. Additionally, scientific conclusions are drawn regarding the negative impact of corruption on economic growth and methods for its reduction.

MAISHIY KORRUPSIYANING IJTIMOIIY TABIATI

Axmad Tursunov

tadqiqotchi

O'zbekiston Milliy universiteti

Toshkent, O'zbekiston

E-mail: roziboyevd831@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Maishiy korrupsiya, ijtimoiy tabiati, iqtisodiy omillar, institutsional sabablar, ijtimoiy-madaniy omillar, agent-mijoz modeli, shaffoflik, davlat boshqaruvi, iqtisodiy o'sish, korrupsiyaga qarshi kurash.

Annotatsiya: Mazkur maqolada maishiy korrupsiyaning ijtimoiy tabiati tahlil qilinadi. Korrupsiyaning iqtisodiy, institutsional va ijtimoiy-madaniy omillari muhokama qilinib, turli nazariy yondashuvlar hamda empirik tadqiqotlar asosida uning kelib chiqish sabablari ochib beriladi. Tadqiqotda «agent-mijoz» modeli asosida maishiy korrupsiya munosabatlari tushuntiriladi. Korrupsiya

darajasining jamiyatdagi axloqiy me'yorlar, davlat boshqaruvining shaffofligi va iqtisodiy sharoitlar bilan bog'liqligi tahlil qilinadi. Shuningdek, korrupsiyaning iqtisodiy o'sishga salbiy ta'siri va uni kamaytirish yo'llari haqida ilmiy xulosalar beriladi.

СОЦИАЛЬНАЯ ПРИРОДА БЫТОВОЙ КОРРУПЦИИ

Ахмад Турсунов

исследователь

Национальный университет Узбекистана

Ташкент, Узбекистан

E-mail: roziboevd831@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:	Бытовая	Аннотация:	В данной статье
коррупция, социальная	природа,	анализируется	социальная природа
экономические	факторы,	бытовой коррупции.	Рассматриваются
институциональные	причины,	экономические,	институциональные и
социокультурные факторы,	модель агент-	социокультурные факторы	коррупции,
клиент, прозрачность,	государственное	раскрываются причины	ее возникновения
управление, экономический	рост, борьба с	на основе различных	теоретических
коррупцией.		подходов и эмпирических	исследований. В
		исследовании объясняются	отношения
		бытовой коррупции на	основе модели
		"агент-клиент."	Анализируется
		взаимосвязь уровня	коррупции с
		моральными нормами	в обществе,
		прозрачностью	государственного
		управления и	экономическими
		условиями.	Также приводятся
		научные выводы о	негативном влиянии
		коррупции на	экономический
		рост и путях ее	снижения.

Kirish va mavzuning dolzarbligi

Maishiy korrupsiya jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tizimida chuqur ildiz otgan murakkab hodisa bo'lib, u davlat boshqaruvi, iqtisodiy barqarorlik va fuqarolik jamiyatining rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Korrupsiya nafaqat siyosiy va huquqiy muammolarni keltirib chiqaradi, balki ijtimoiy adolat tamoyillarini buzadi, fuqarolarning davlat institutlariga bo'lgan ishonchini susaytiradi va iqtisodiy o'sishni sekinlashtiradi. Ushbu maqolada maishiy korrupsiyaning kelib chiqish sabablari, uning iqtisodiy, institutsional hamda ijtimoiy-madaniy omillari ilmiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi.

Tadqiqotda korrupsiyaning asosiy nazariy tushunchalari va «agent-mijoz» modeli asosida davlat amaldorlari va fuqarolar o'rtasidagi munosabatlar tushuntiriladi. Shuningdek, rivojlanayotgan mamlakatlarda korrupsiya darajasining yuqori bo'lishi va uning salbiy oqibatlari empirik dalillar asosida yoritiladi. Korrupsiyaning oldini olishda boshqaruv tizimining

shaffofligini oshirish, javobgarlikni kuchaytirish va huquqiy islohotlar olib borish zarurati asoslab beriladi. Mazkur tadqiqot korrupsiyaning ijtimoiy tabiati va uni kamaytirish yo'llarini o'rganishga qaratilgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Korrupsiyaning kelib chiqish sabablarini tahlil qilishning nazariy asoslari 1970-yillarda amerikalik siyosatshunoslar va neoinstitutsional yo'nalishdagi iqtisodchilar (R.Krouz, S.Xantington, O.Uilyamson va boshqalar) tomonidan yaratilgan.

Ularning asosiy g'oyasi shunday ediki, agar iqtisodiy hayotning turli sohalarini davlat tomonidan tartibga solish bilan bog'liq renta mavjud bo'lsa (masalan, eksport-import cheklovlari (kvotalar, bojxona to'lovlari) joriy etish, aholi va tashkilotlarga subsidiyalar va soliq imtiyozlari berish, narxlarni nazorat qilish va hokazo), korrupsiya paydo bo'ladi va o'sadi. S. Xantington ta'kidlaganidek, «Korrupsiyaga kam maosh oladigan amaldorlar ko'proq moyil bo'lishadi». Keyinchalik o'tkazilgan empirik tadqiqotlar shuni tasdiqladiki, agar mamlakatda tashqi savdo cheklovlari kam bo'lsa, agar sanoat siyosati barcha korxonalar va tarmoqlar uchun teng imkoniyatlar tamoyillariga asoslansa, shuningdek, mansabdor shaxslarning maoshi xuddi shu toifadagi xususiy sektor xodimlariga qaraganda yuqori bo'lsa, korrupsiya ko'lami kamayadi [1, - p. 52; 2, -p. 587-605; 3, -p. 259-273; 4, -p. 215-236]. Bundan tashqari, A. Shleyfer va R. Vishning fikricha, korrupsiya tizimi tartibsizroq bo'lgan mamlakatlar iqtisodiy o'sish uchun juda noqulay istiqbollarga ega. Sh.S. Veyning ma'lumotlariga ko'ra esa, korrupsiya darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarda ichki sarmoya va chet el investitsiyalari sezilarli darajada past bo'lib, bu o'z navbatida alohida olingan davlatda iqtisodiy rivojlanishning [5, -p. 599-617] sekinlashishiga tabiiy ravishda olib keladi.

Zamonaviy ilm-fanda maishiy korrupsiyaning kelib chiqish sabablari ko'pligini ta'kidlab, uning iqtisodiy, institutsional va ijtimoiy-madaniy manbalarini ajratib ko'rsatish qabul qilingan.

S. Rouz-Akkerman ta'kidlaganidek: «Korrupsiyaning iqtisodiy sabablari - bu, eng avvalo, davlat xizmatchilarining firmalar va fuqarolar faoliyatiga ta'sir o'tkazish imkoniyatining yuqoriligidir» [6; 7, -c. 45]. Korrupsiya amaldorlar o'zlariga tegishli bo'lmagan qandaydir kamyob ne'matlarni tasarruf etish bo'yicha keng vakolatlarga ega bo'lgan joylarda yuzaga keladi. «Bu, ayniqsa, rivojlanayotgan va o'tish davri mamlakatlarida sezilarli, lekin rivojlangan mamlakatlarda ham namoyon bo'lmoqda. Masalan, AQShda muhtoj oilalarga imtiyozli uy-joy berish dasturini amalga oshirishda ko'plab korrupsiya holatlari qayd etilgan,» - deydi A.Kryuger [9, -p. 296]. A. Kravchenkning fikricha, «korrupsiya eng qadimgi pul ishlash kasbi - fohishalikka juda yaqin, poraxo'r amaldorlar esa fohishalarga o'xshaydi. Ikkalasi ham savdo qiladi - fohishalar o'z tanasini, amaldorlar esa o'z lavozimini sotadi. Aslida, fohishalar halolroq - ular o'zlariga tegishli narsani sotishadi» [9, -c. 58].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot olib borish davomida tizimlilik, nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik, qiyosiy tahlil kabi ilmiy-falsafiy tamoyillardan foydalanildi.


Tahlil va natijalar

Davlat tuzilmalarining (idoralarining) faoliyatidagi yuqori darajadagi yopiqlik korrupsiyaning institutsional sabablari hisoblanadi. L. Timofeev shunday yozadi: «Haddan tashqari murakkab hisobot tizimi, qonun ijodkorligi tizimidagi shaffoflikning yo‘qligi, davlatning kadrlar bo‘yicha sust siyosati - bularning barchasi xizmatchilarning haqiqiy ish natijalaridan qat’i nazar, sinekuralarning tarqalishiga va xizmat pog‘onasidan ko‘tarilish imkoniyatlariga yo‘l ochib beradi» [10, -c. 18].

J.Laytselning fikricha, korrupsiyaning ijtimoiy-madaniy sabablari jamiyatning axloqiy tanazzuli, fuqarolarning yetarli darajada ma’lumotga ega emasligi va uyushmaganligi, shuningdek, «hokimiyat egalar»ining o‘zboshimchaligiga nisbatan ijtimoiy loqaydlikdir.

G. Satarov, M. Levin va P. Mauro har uch guruh omillar - iqtisodiy, institutsional va ijtimoiy-madaniy omillar ta’sir ko‘rsatadigan mamlakatlarda (bular, asosan, rivojlanayotgan va postsotsialistik mamlakatlar) korrupsiya darajasi eng yuqori ekani haqida xulosaga kelishadi. Aksincha, G‘arbiy Yevropa sivilizatsiyasi mamlakatlarida bu omillar ancha kuchsiz ifodalangan, shu sababli u yerlarda korrupsiya darajasi nisbatan pastroq hisoblanadi [11, -p. 84; 12; 13, -p. 121].

Maishiy korrupsiya munosabatlarining sabablari va mohiyatini tushuntirish uchun tadqiqotchilar odatda “agent-mijoz” modelidan foydalanadilar: «kafolat beruvchi (prinsipal) - bajaruvchi (agent) - homiylikka olingan (mijoz)» (1-rasm).



1-rasm. Maishiy korrupsiyaviy munosabatlarning o‘zaro bog‘liqligini ochib beruvchi model

Bu modelda davlat (federal yoki mahalliy) hukumat siymosida prinsipal (P) vazifasini bajaradi. U qoidalarini o‘rnatadi va agentlarga (A) - o‘rta va quyi bo‘g‘indagi amaldorlarga - aniq topshiriqlarni belgilaydi. Bunda amaldorlar hukumat bilan mijozlar (K) - alohida fuqarolar yoki

tashkilotlar o'rtasida vositachi sifatida faoliyat yuritadilar. Soliqlar to'lanishi evaziga agent prinsipal nomidan mijozlarga turli xizmatlarni taqdim etadi (tashkilotlar faoliyatini litsenziyalaydi, fuqarolarga ijtimoiy nafaqalar beradi, davlat xizmatiga xodimlarni ishga oladi va hokazo).

Masalan, soliq xizmati doirasida davlat soliq xizmati boshlig'i siymosida prinsipal, soliq yig'uvchilar agent sifatida, barcha soliq to'lovchilar esa mijoz vazifasini bajaradi. P. Chander va L. Uilde bu haqda shunday yozadilar: «Soliq to'lovchilar soliqlarni to'lash evaziga qonuniy faoliyat yuritish imkoniyatiga ega bo'ladilar, aks holda ularni jarimalar va boshqa jazolar kutadi».

Tartibga solish tizimining sifati ushbu tizimda agent va mijoz o'rtasida manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishiga bog'liq. Hukumat har bir fuqaroga shaxsan xizmat ko'rsatish uchun vaqt ham, imkoniyat ham yo'qligi sababli, ularga xizmat ko'rsatish vakolatini amaldorlarga topshirib, ularga muayyan xulq-atvor qoidalari va me'yorlarini belgilab beradi. Agent-amaldorlar o'z mijozlarini hukumat-prinsipialga qaraganda yaxshiroq bilganlari uchun, mijozlar bilan yanada samaraliroq ishlashlari mumkin. Biroq, prinsipial uchun ko'p sonli vositachi-agentlarning belgilangan vazifalarni qanday bajarayotganini nazorat qilish qiyin, shuningdek, amaldorlar ham o'z faoliyatining haqiqiy natijalari haqidagi ma'lumotlarni ongli ravishda yashirishlari mumkin. Agent-amaldorning halolligini to'liq nazorat qilib bo'lmazligi sababli, agent halol bo'lish yoki bo'ymasligini o'zi hal qiladi. P. Bardxan ta'kidlaganidek, «amaldorning qarori vijdonan ishlash uchun kutilayotgan mukofotlar va suiiste'molliklar uchun kutilayotgan jazolarga bog'liq bo'ladi» [14, -p. 171; 15, -p. 1326;]. Masalan, Rossiya soliq tizimida soliq xizmatchisining maoshi u aniqlagan yashirilgan soliqlar hisobiga byudjetga kiritiladigan mablag'lar miqdoriga deyarli bog'liq emas. Bu esa ko'pincha soliq yig'uvchining halol xizmat qilishdan ko'ra pora olishdan ko'proq manfaatdor bo'lib qolishiga olib keladi.

Amaldor-agentga uning mijozlari tomonidan turli sabablarga ko'ra noqonuniy tarzda mukofot berilishi mumkin. Fuqaro mansabdor shaxs o'z xizmatini tezroq, «navbatsiz» ko'rsatishi uchun pora berishi mumkin (tezlashtiruvchi pora). Ammo ko'pincha, amaldorlar o'z mijozlariga davlat taklif etayotgan xizmatlardan ko'proq taqdim etishlari, soliqlarni esa qonunda belgilanganidan kamroq undirishlari uchun pora oladilar (sekinlashtiruvchi pora). I. Golosenko ta'kidlaydiki: «Shunday hollar bo'ladiki, amaldorda o'ylab topilgan bahonalar bilan janjal chiqarish uchun keng imkoniyatlar mavjud bo'ladi; bunday hollarda amaldor o'z imkoniyatlaridan foydalanib, o'zboshimchalik qilmasligi uchun pora beriladi» [16, -c. 90-91; 17, -c. 104-105;]. Bu «yaxshi munosabati uchun» pora deb ataladi.

Korrupsiyaning asosiy sabablarini juda qisqa ta'riflashni ba'zi xorijiy tadqiqotchilar quyidagi formula bilan ifodalaydilar: korrupsiya = monopoliya + o'zboshimchalik – javobgarlik [18, -p. 145-159; 19, -p. 1-22]. Bu shuni anglatadiki, korrupsiya imkoniyatlari davlatning ayrim faoliyat turlarini amalga oshirishdagi yakkahukmronligiga va amaldorlar faoliyatining nazoratdan

tashqariligiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq, biroq suiiste'molliklar uchun jazoning og'irligi va ehtimolligiga teskari mutanosibdir.

Jamiyatda hukm surayotgan ma'naviy-psixologik muhit, ya'ni ijtimoiy-psixologik omillar maishiy korrupsiyaning keng tarqalishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Davlat xizmatchilarining aksariyati erta yoki kech korrupsion qaror qabul qilish yoki qilmaslik tanloviga duch keladigan vaziyatlarga ro'baro' bo'ladilar [20, -c. 45]. Ularni g'ayriqonuniy qaror qabul qilishga quyidagi ijtimoiy-psixologik omillar turtki bo'lishi mumkin.

1. Korrupsiyaga nisbatan bag'rikenglik va hatto rag'batlantiruvchi munosabatni shakllantiruvchi axborot muhiti. «Halol amaldor, - deb yozadi bu borada V. Nomukanov, - taniqli siyosatchilar va yuqori lavozimli mansabdorlar o'zlarining rasmiy vakolatlaridan shaxsiy boylik orttirish uchun foydalanayotganini, «bizda hamma pora oladi!» degan gaplarni har kuni eshitib va o'qib tursa, o'zini hech kim hatto pora ham taklif qilmaydigan g'alati odam, omadsiz kishi sifatida qabul qila boshlashi mumkin» [21, -c. 67]. Bunday muhitda u shaxsiy boyishi uchun to'siqlarni ko'rmaydi va imkoniyat tug'ilganda korrupsion xatti-harakatlarga qo'l ura boshlaydi.

2. Siyosiy va iqtisodiy beqarorlikni his qilish, amaldorni tavakkal qilishga va o'zining hokimiyat kapitalini iqtisodiy kapitalga almashtirishga undaydi.

3. Xizmatchi tomonidan bajariladigan mehnatning murakkabligi va mas'uliyatining ish haqiga mos kelmasligi, ijtimoiy kafolatlarning samarasiz tizimi.

4. Xizmat pillapoyasidan ko'tarilishdagi adolatsizlik.

5. Sodir etilgan qonunbuzarliklar uchun jazoning muqarrarligini ta'minlay olmayotgan nazorat tizimining zaifligi.

Jamiyatdagi ijtimoiy-psixologik muhitning korrupsiya rivojlanishiga yordam beruvchi muhim xususiyati ikki tomonlama axloqiy mezon hisoblanadi. Bir tomondan, korrupsiya, ayniqsa yuqori darajadagi korrupsiya, ijtimoiy jihatdan qabul qilinmaydigan hodisa sifatida qaraladi. Buni kundalik axloq qoidalari, ommaviy axborot vositalari va korrupsiyaga qarshi mavzulardan foydalanuvchi siyosiy amaliyot har tomonlama qo'llab-quvvatlaydi. Boshqa tomondan esa, korrupsiya, ayniqsa quyi darajadagi korrupsiya, kundalik hayotning «odatiy» qismi sifatida qabul qilinadi. Korrupsiyaga qarshi kurashuvchi huquqni muhofaza qilish organlari faoliyati uchun deyarli yopiq bo'lgan sohalar hamon mavjud. «Korrupsiyada ayblash shunchalik oddiy va keng tarqalgan hodisaga aylandiki, me'yor bilan og'ish o'rtasidagi chegara yo'qolib bormoqda».

Shunday qilib, maishiy korrupsiyaning ijtimoiy tabiati, umuman olganda korrupsiya singari, jamiyatning o'zida va unda shakllangan ijtimoiy munosabatlarda ildiz otgan. Korrupsion amaliyotlarning vujudga kelishi va ko'lamiga sivilizatsiyaning (alohida olingan mamlakatning) tarixiy rivojlanish yo'llari hamda turli ijtimoiy doiralarda korrupsiyaning turli ko'rinishlarini qoralash yoki ma'qullash chegaralarining noaniqligi ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa va takliflar

Maishiy korrupsiya jamiyatning iqtisodiy, institutsional va ijtimoiy-madaniy muhitiga chuqur ta'sir qiluvchi muhim omillardan biri bo'lib, u davlat boshqaruvi tizimining shaffofligini pasaytiradi, iqtisodiy o'sish sur'atlarini sekinlashtiradi va fuqarolar hamda tadbirkorlik subyektlari uchun teng imkoniyatlarni cheklaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, korrupsiyaning tarqalishiga iqtisodiy nochorlik, davlat idoralarining yopiqligi, huquqiy tizimdagi kamchiliklar hamda jamiyatdagi axloqiy qadriyatlarining o'zgarishi sabab bo'lmoqda. «Agent-mijoz» modeli asosida olib borilgan tahlil korrupsiya jarayonlarining qanday shakllanishi va rivojlanishini ko'rsatib berdi.

Korrupsiyaning oldini olish va uni kamaytirish bo'yicha quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Davlat boshqaruvi tizimining shaffofligini oshirish – qonunlar ijrosini ta'minlash, davlat xarajatlarini nazorat qilish va raqamlashtirish jarayonlarini kuchaytirish zarur.

2. Huquqiy islohotlarni amalga oshirish – korrupsiyaga qarshi kurashuvchi institutlarni mustahkamlash va jazo choralarining muqarrarligini ta'minlash lozim.

3. Iqtisodiy omillarni yaxshilash – davlat xizmatchilarining maoshini oshirish, monopoliyani kamaytirish va xususiy sektorga ko'proq imkoniyat yaratish orqali korrupsion harakatlarni kamaytirish mumkin.

4. Fuqarolik jamiyatining rolini kuchaytirish – ommaviy axborot vositalari va nodavlat tashkilotlarning korrupsiyaga qarshi kurashdagi faolligini oshirish muhim.

5. Ta'lim va tarbiya tizimini rivojlantirish – korrupsiyaga qarshi madaniyatni shakllantirish uchun yoshlarga halollik va adolat tamoyillarini singdirish zarur.

Mazkur takliflarni amalga oshirish orqali jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurash samaradorligini oshirish va davlat institutlariga bo'lgan ishonchni mustahkamlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Huntington S. The Third Wave: Democratization in the Late Twentieth Century. P. 52.
2. Banfield E. Corruption as a feature of governmental organization // Journal of Law and Economics. 1975. Vol. 18. № 3. P. 587-605;
3. Kurer O. Clientelism, corruption, and the allocation of resources // Public Choice. 1993. Vol. 77. № 2. P. 259-273;
4. Lui F. A dynamic model of corruption deterrence // Journal of Public Economics. 1986. Vol. 31. №2. P. 215-236.
5. Shleifer A., Vishny R. Op. cit. P. 599-617.
6. Вэй Ш.-Ц. Коррупция в жерновах экономического развития - смазка или песок? // Обзор экономического положения Европы. 2001. № 2. С. 6. <http://www.unece.org/ead/pub/012/ru/012_c4_r.pdf>.

7. Роуз-Аккерман С. Коррупция и государство. Причины, следствия, реформы. С. 45.
8. Krueger A. The political economy of the rent-seeking society // American Economic Review. 1974. Vol. 64. № 3. P. 296.
9. Кравченко А. Социология девиантности. М.: Изд-во МГУ, 2005. С. 58.
10. Тимофеев Л. Институциональная коррупция: Очерки теории. М.: РГГУ, 2000. С. 18.
11. Leitzel J. Corruption and Organized Crime in the Russian Transition / Stanford Institute of Public Policy. Stanford, 1997. P. 84.
12. Сатаров Г, Левин М. Россия и коррупция: Кто кого?; Mauro P. The Effects of Corruption on Growth, Investment, and Government Expenditure / International Monetary Fund. Wash., D.C.: IMF, 1996.
13. Feichtinger G., Wirl F. On the stability and potential cyclicity of corruption in governments subject to popularity constraints // Mathematical Social Sciences. 1994. Vol. 28. № 2. P. 121.
14. Chander P., Wilde L. A general characterization of optimal income tax enforcement // Review of Economic Studies. 1998. Vol. 65. № 1. P. 171.
15. Bardhan P. Corruption and development: A review of issues // Journal of Economic Literature. 1997. Vol. 35. №3. P. 1326.
16. Лунеев В. Коррупция учтенная и фактическая // Государство и право. 1996. № 8. С. 90-91.
17. Голосенко И. Феномен «русской взятки»: Очерк истории отечественной социологии чиновничества // Журнал социологии и социальной антропологии. 1999. Т. II. № 3. С. 104-105.
18. Mookherjee D., Pngl. Corruptible law enforcers: How should they be compensated? // The Economic Journal. 1995. Vol. 105. № 1. P. 145-159;
19. Tirole J. A Theory of collective reputations (with applications to the persistence of corruption and to firm quality) // Review of Economic Studies. 1996. Vol. 63. № 1. P. 1-22.
20. Аслунд А. Реформы и присвоение ренты в российской экономике // Социальная политика в период перехода к рынку: проблемы и решения. М.: Московский центр Карнеги, 1996. С. 45.
21. Номоканов В. О правовой базе борьбы с организованной преступностью // Организованная преступность. М.: Криминологическая ассоциация, 1996. С. 67.